

Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**2019 yil yanvar-mart(dastlabki ma'lumot)**

Ish haqi. 2019 yil yanvar– mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



- **ta'limda** 992 ta muassasada **57919** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **281997740,3** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 44,6 %ni) tashkil etgan. **Ta'lim sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1597683,5** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga** nisbatan **139,8 %** ga o'sdi;



- **sanoatda** 30 ta korxonada **11759** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **79489752,7** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,6 %ni) tashkil etgan. **Sanoat sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2210525,5** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga** nisbatan **114,8 %** ga o'sdi;



- **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** 59 ta muassasada **22620** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **98892744,6** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,6 %ni) tashkil etgan. Hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1443186,3** so'mni tashkil etgan. **2018 yilning mos davriga nisbatan** **131,9 %** ga o'sdi.



- **tashish va saqlashda** 7 ta korxonada **2457** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **18216030,9** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,9 %ni) tashkil etgan. **Tashish va saqlash sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2468264,6** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga nisbatan 116,6 %ga o'sdi;**




- **moliyaviy va sug'urta faoliyatida** 30 ta muassasada 3004 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **27927200,2** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,4 % ni) tashkil etgan. **Moliyaviy va sug'urta faoliyat sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3066599,8** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga nisbatan 128,0 %ga o'sdi.**

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil yanvar- mart oylarida **577,2** ming so'mni tashkil etgan, Vfzirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.





2019 yil yanvar– mart oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1726,2 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **132,4** % ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2019 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari)

	Korxona va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, ming. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming. so'm
Xorazm viloyati - jami	1563	121993	631765307,1	1726,2
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	30	11759	79489752,7	2210,5
Qurilish	12	1362	5837923,9	1428,8
Savdo	16	1811	11435651,7	2104,9
Tashish va saqlash	7	2457	18216030,9	2471,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12	89	257620,7	964,9
Axborot va aloqa	17	812	4810066,2	1974,6
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	30	3004	27927200,2	3098,9
Ta'lim	992	57919	281997740,3	1622,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	59	22620	98892744,6	1457,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	42	1619	6538112,7	1346,1
Boshqa faoliyat turlari	346	18541	96362463,2	1720,2

Qurilish sohasida 12 ta korhonalarida **1362** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **5837923,9** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,9 %ni) tashkil etgan.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1418479,9** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga nisbatan 119,5 %ga o'sdi;**



Savdo sohasida 16 ta korhonada **1811** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **11435651,7** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,8 %ni) tashkil etgan. **Savdo sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1985555,6** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga nisbatan 125,0 %ga o'sdi;**



Axborot va aloqa sohasida 17 ta korhonalarida **812** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan sh haqi fondi **4810066,2** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,8 %ni) tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1967656,6** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga nisbatan 129,4 %ga o'sdi;**




Boshqa faoliyat turlarida 346 ta **18541** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 15,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **96362463,2** ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,3 %ni) tashkil etgan.


Boshqa faoliyat turlarida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1720235,2** so'mni tashkil etib, **2018 yilning mos davriga nisbatan 140,8 %ga o'sdi;**



**Ta'limga bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
ta'limga viloyat ta'limga nisbati (ming so'm)**
(2019 yil yanvar– mart; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (yanvar– mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari, so'm)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida **2009787,1 so'mni** (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**116,4%**)), Xazarasp tumanida **1850456,5 so'mni** (**107,2%**) tashkil etgan bo'lisa, Qo'shko'pir tumanida **1419897,4 so'mni** (**82,3%**), Shovot tumanida **1446758,3 so'mni** (**83,8 %**) va Yangibozor tumanida **1483350,9 so'mni** (**85,9%**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga teng bo'lmoqda.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati
(2019 yil yanvar-martda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan
tashqari) ming so'mda**



2019 yanvar-mart oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati boshqa faoliyat turlarida **40,8 %**, san'at, ko'ngil ochish va dam olish **37,4 %**, Ta'limda **39,8 %**, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **31,6 %**, savdoda **25,0 %**, axborot va aloqa **29,4 %**, moliyaviy va sug'urta faoliyati **28,0 %**, kuzatildi.